

Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

“AXLOQ” VA “XULQ” (AXLOQIYLIK) KATEGORIYALARI O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada “axloq” va “xulq” kategoriyalari o‘rtasidagi munosabatlar va ularning ma’naviy xususiyatlari bayon etilgan. Tadqiqotning asosiy mazmuni bo‘lajak o‘qituvchining axloqiy-ma’naviy tarbiyasini takomillashtirish masalasida yuritilgan mulohazalar, jahonda va mamlakatimizdagi soha olimlari hamda pedagoglarining ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradigan axloq (axloqiy tarbiya) bilan xulq o‘rtasidagi munosabatlar borasidagi qarashlarini yuzaga chiqarish ustida boradi.

Tayanch so‘zlar: axloq, xulq, kategoriya, tushuncha, shaxs, xatti-harakat, xarakter.

ВЗАИМОСВЯЗЬ КАТЕГОРИЙ “МОРАЛЬ” И “ПОВЕДЕНИЕ” (МОРАЛЬ)

Аннотация. В данной статье излагаются взаимосвязи между категориями “мораль” и “поведение” и их духовная характеристика. Основное содержание исследования-размышления по вопросам совершенствования нравственно-духовного воспитания будущего учителя, выявление взглядов ученых и педагогов отрасли в мире и в нашей стране на взаимосвязь между моралью (нравственным воспитанием) и поведением, формирующимся в процессе учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова: мораль, поведение, категория, понятие, личность, поведение, характер.

RELATIONSHIP BETWEEN THE CATEGORIES OF “MORALITY” AND “BEHAVIOR” (MORALITY)

Abstract. This article describes the relationship between the categories of “morality” and “behavior” and their spiritual characteristics. The main content of the research is reflections on the issues of improving the moral and spiritual education of a future teacher, revealing the views of scientists and teachers of the industry in the world and in our country on the relationship between morality (moral education) and behavior formed during the educational process.

Keys words: morality, Behavior, category, concept, personality, behavior, character.

Kirish. Har bir yangi avlod o‘zidan oldin o‘tgan avlod muqaddas bilgan qadriyatlar majmuasini meros sifatida qabul qiladi va bu o‘ziga xos uzatilishi jamiyat ichida, jamiyat nomidan amalga oshiriladi. Qadriyatlarning bunday majmuasi shaxsning jamiyat ichida sodir etishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarini ma’lum ma’noda cheklab qo‘ygani barobarida, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning maqsadga muvofiq tarzda o‘rnatilishiga, jamiyat uchun nomaqbul va destruktiv hodisalarning paydo bo‘lmasligiga zamin yaratadi, bu bilan jamiyatda axloqiy va etik tartib o‘rnatilishini, natijada esa shaxsning jamiyatga kirishi, unda o‘rnatilgan me’yorlar, etik va axloqiy qoidalarni qabul qilishini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat ichida qaror topgan umumiy ahamiyat va har bir shaxs uchun majburiylik kasb etuvchi axloqiy me’yorlar va talablar insonning axloqiy sohadagi tajribalarini cheklab qo‘yadi. “Tashqi muvofiqlik” ta’siridan chiqishga uringan ong, birinchi navbatda, o‘ziga nisbatan tashqi hisoblangan axloq bilan qadriyatlarning qiymatini oshirib yuborishlik hamda bu “oshirib yuborishlik” natijalarini refleksiv baholash o‘rtasidagi qarama-qarshilikka “e’tibor qaratadi”. Qadriyatlarning qiymatini oshirib yuborishlik natijalarining refleksiv baholanishi, birinchidan, faoliyat maqsadlari bilan unga erishish vositalari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni, ikkinchidan, ijtimoiy ongning, qisman, ijtimoiy guruhlarining, qadriyatlar sohasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

R.G. Apresyan shunday yozadi: "Ijtimoiy axloq tuzilmaviy jihatdan u yoki bu darajada tushuniladi (ya'ni uning tarkibini tushunish mumkin), o'z ta'sirini mo'tadil sharoitlarda barqaror saqlab turadi va ma'lum o'zgarishlarga qadar destruktiv ijtimoiy tendensiyalarga ham bardosh berishi mumkin. Biroq jamiyatga ijtimoiy anomiya, qadriyatlar paradigmasi kirib kelishi bilan u o'z kuchini yo'qota boshlaydi".

Tahlil va natijalar. Jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sharoitida inson qadriyatlari olamini ifoda etuvchi, "inson va insonlararo munosabatlar olami" sifatida qaraladigan, boshqa insonning farovonligi va manfaatlariga qaratilgan xulqgina vayronkor tendensiyalarga bardosh bera olishi mumkin. Inson xulqining sarhadi – inson sodir etadigan xatti-harakatlar va qabul qiladigan qarorlar, u amalga oshirishi lozim bo'lgan ma'naviy tanlovdir, ya'ni qadriyatlarni e'zozlashi yoki ularni inkor etishidir. Ushbu o'rinda E.Kantning "Xushxulqlik – afzallikdir", degan fikrini keltirib o'tamiz.

G.A. Golubeva mavjudlik va majburiylikning dixotomiyasidan kelib chiqib, shunday yozadi: "ikkita tushuncha bor – mukammal (ideal) atvor va xatti-harakatlar hisoblangan axloq, insonlarning real xatti-harakatlari sanalgan xulq. Aslini olganda, bu tushunchalarning farqlanishi axloqshunoslik nazariyasi uchun kerak, kundalik muloqotlarimizda esa "axloq" va "xulq" tushunchalari sinonimlar sifatida qo'llaniladi". Shu o'rinda qayd etish lozimki, G.A. Golubevaning axloqiylikni "insonning real xatti-harakatlari" sifatida tavsif etishi Suqrotning mazkur tushuncha haqida "individning mas'ul xatti-harakatlari hududi" degan fikriga ma'lum darajada to'g'ri keladi[5; 448-b.].

A.A. Gorelov va T.A. Gorelovalarning fikriga ko'ra, "axloq – ma'lum jamiyatda urf-odatlar va tasavvurlar yoki mo'tadil insonga xos bo'lgan xususiyatlarning ifodasi. Xulq esa xuddi shunday insonning ezgulik va yovuzlik haqida botinida shakllangan tasavvur bo'lib, bu tasavvurlar mavjud jamiyatning etikasi va me'yorlariga to'g'ri kelmasligi ham mumkin". Biroq o'qituvchi va o'quvchining ezgulik va yovuzlik, adolat va nohaqlik haqidagi tasavvurlari o'rtasida bunday nomuvofiqlik bo'lishi yoki bu haqdagi ta'lim-tarbiya jarayonida shakllangan tasavvurlarning jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmasligi ta'lim oluvchilardagi axloq va xulq haqidagi qarashlar o'rtasida ma'lum bir ziddiyat paydo qiladi.

P.S. Gurevich "axloq" va "xulq"ning turli tavsifga ega tushunchalar ekanligini yozadi. Olim fikricha, axloq "tashqaridan baholovchi sub'ektning (ta'lim oluvchi uchun – o'qituvchi, ota-ona, tengdoshlar va boshqalar) mavjudligini nazarda tutadi va shaxs tarixiy tajribasi asosida shakllanadi; xulq esa shaxsning ichki dunyosi va shaxsiy e'tiqodi bilan bog'liq hodisa".

Bizningcha, axloqiy tarbiya (ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradigan axloq) nafaqat ta'lim oluvchining shaxsiy va tarixiy tajribasiga, balki faoliyat sifatidagi tarbiyalanishga oid tajribasiga ham qaratilgandir. Ushbu o'rinda qo'llanilgan faoliyat sifatidagi tarbiya tushunchasida tarixning sub'ektga xos aspekti nazarda tutiladi. Mazkur ta'kid mustahkam metodologik asosga ega. M.B. Turovskiy shunday yozadi: "Tarix insonning yaratilqlaridan va bu jarayonda jamiyatdagi tartib hamda me'yorlar o'rnatilishidan, insonning tarixiy jarayonlar in'ikosi o'laroq shakllana borishidan tarkib topadi. Tarixning sub'ektga (shaxsga) xos aynan shu aspekti tarbiya deb talqin etiladi"[2; 94-b.].

P.S. Gurevichning axloq va xulq haqidagi fikrlarini tahlil etib, uning axloq faqat tajribaga qaratilgan mazmunidagi ta'kid bilan cheklanib qolmaganligi ko'rish mumkin. Olim mazkur masalada shunday yozadi: "Axloq har bir inson (alohida inson) uchun olam manzarasini belgilab beradi: g'oyalar, tamoyillar, qat'iy me'yorlar axloqqa xosdir. Xulq esa hayotining faoliyat, urf-odatlar, kundalik ishlar bilan bog'liq bo'lgan qismidir". Keltirib o'tilgan fikrni ta'lim oluvchi shaxsi bilan bog'laydigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib boruvchi axloq – uning o'z faoliyatida mavjud me'yorlarga qat'iy amal qilishi, o'z faoliyatini muayyan tamoyillardan og'ishmay olib borishidir. Xulq esa o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi boshqalar bilan o'rnatadigan munosabatlardir.

P.S. Gurevichning "axloq alohida inson uchun olam manzarasini belgilab berishi" haqidagi ta'kidi hech qanday e'tirozga sabab bo'la olmaydi va bizningcha, aynan ushbu ta'kid muammoning mohiyatini ochib beradi: ya'ni insonning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadigan axloq (ya'ni axloqiy tarbiya) sub'ekti bo'lishi qanchalar mumkin va fazilatlariga ega bo'lgan inson qay darajada axloqiy (ya'ni xushxulq)? Biz ushbu o'rinda "olam manzarasi" kategoriyasini ilmiy jihatdan tadqiq etishga kirishmasdanoq, aytib o'tmoqchimizki, axloq faqat olam manzarasining ma'lum bir qisminigina belgilab beradi.

V.N. Sagatovskiy qayd etganidek, olam manzarasi «madaniyat va tarbiyada to'liq aks etadi»; olam manzarasi "madaniyat va tarbiyaning voqelanishi demakdir". Madaniyat va tarbiyaning,

38 yanayam aniqrog'i, "tarbiya va madaniyatning aksiologik kategoriyasi tarmoqlari" sifatida axloq qaror topadi"[4; 179-b.].

V.N. Sagatovskiyning olam manzarasi "madaniyat va tarbiyaning voqelanishi" ekanligi va uning aksiologik kategoriyasi tarmog'i sifatida axloq qaror topishi haqidagi ta'kid bizning yuqorida axloqning faoliyat tajribasi sifatidagi tarbiya hosilasi ekanligi xususidagi fikrimizni tasdiqlaydi. Axloq o'zining hayotbaxsh quvvatini aynan tarbiyadan oladi, ya'ni axloq tarbiyadan "ozuqa oladi".

A.S. Arsenev bolalarning xulqni "tarbiya maskanlari" orqali meros sifatida qabul qilib olishlari haqidagi masalani ko'tarar ekan, "individdning tarbiyaviy axloqi shakllanishi uchun uning madaniyat va tarbiya shakllarini o'zlashtirishi shart emas", degan xulosani bayon qiladi. Olim ilgari surgan ta'lim oluvchi (tarbiyalanuvchi)ning madaniyat va tarbiya shakllarini to'liq o'zlashtirganligi unda tarbiyaviy axloq shakllanishini kafolatlay olmasligi xususidagi fikrga e'tiroz bildirmaslik ham mumkin. Biroq, bizning nazarimizda yana bir holat borki, unga ko'ra, o'qituvchining va o'quvchining butun o'quv faoliyati davomida madaniyat va tarbiya shakllari hamda qadriyatlarini o'zlashtirib borishi ularda axloqning barqarorlashuvi va rivojlanishi uchun zamin yarata boradi. Madaniyat va tarbiya, ayniqsa, tarbiyaning aksiologik shakllari o'quvchi axloqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas[11; C.160].

Yuqorida axloq va xulq haqida mulohazalari asos sifatida keltirilgan olimlar (A.S. Arsenev, G.A. Golubeva, A.A. Gorelov, T.A. Gorelova, P.S. Gurevich)ning mavzu yuzasidan bayon qilgan xulosalari tahlili shuni ko'rsatdiki, axloq va xulqni "tashqi" va "ichki" mezonlar bo'yicha ajratish mumkin.

A.S. Arsenev esa mazkur kategoriyalarni nafaqat "tashqi" va "ichki" mezonlar bo'yicha, balki axloq va xulq o'rtasida o'zaro inkor etuvchanlik xususiyatlariga ko'ra ham ajratish mumkinligini ta'kidlaydi. "Individ ko'pincha shunday vaziyatga tushib qoladiki, u jamiyatda ustivor bo'lgan axloqiy me'yorlarga muvofiq yo'l tutib, maqtov va olqishlar olishi yoki "tushuniksiz", "nooqilona" xatti-harakat sodir etib, zamondoshlari nafratiga sazovor bo'lib, ayni vaqtda o'zini shaxs sifatida namoyon etishi va o'zining axloqiy tamoyillariga sodiq qolishdek ikki tanlov o'rtasida qoladi. Aslida, axloq va xulq bir-biridan ajralmas xislatlar bo'lib, zamonaviy inson, xususan, ta'lim oluvchi shaxsining muhim tarkibiy qismini tashkil etgani barobarida, uni ichki ziddiyatlardan azob chekishga, vaziyatni va o'z xatti-harakatlarini refleksiv tahlil etishga, tanlovlar amalga oshirishga majbur qiladi. Shaxs kamoloti va rivojlanishiga tashqi munosabatlarning ta'siri sezilarli bo'lgan sharoitlarda uning botinidagi mavjud ziddiyatlar shaxs shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi", deb yozadi olim [6; 41-b.].

Xulosa. A.S. Arsenev bayon etgan insonning axloq va xulq o'rtasidagi botiniy ziddiyatlar sharoitida rivojlanishi haqidagi fikri olimlarning ta'lim-tarbiya davomida axloqni (axloqiy tarbiyani) shakllantirish jarayonining mohiyatini tushunishlarida muhim nuqta hisoblanadi. "Shaxsni axloqiy tarbiyalash – o'z botinidagi axloq va xulq o'rtasidagi ziddiyatga ta'sirchan individni tarbiyalash demakdir. Axloqiy tarbiya topgan individ tegishli xatti-harakatni sodir etish bo'yicha qaror qabul qilish va uning natijasi uchun shaxsiy mas'uliyat hissini tuyishdek qobiliyatga ega bo'ladi". A.S. Arsenev ilgari surgan mazkur fikrni o'rganib chiqsak, ma'lum bo'ladiki, olim aslida erkin va maqsadga muvofiq xulqiy, etik tanlovni amalga oshirish haqida so'z yuritadi. Bu tanlov o'qituvchiga ijtimoiy va kasbiy axloq me'yorlari tomonidan belgilangan doira (sarhad)dan tashqariga chiqish va ayni vaqtda o'z xatti-harakatlarini erishilgan natija bilan oqlash imkonini beradi. Ushbu o'rinda inobatga olish lozimki, o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini oqlashi muayyan vaqt kesimi ichida mavjud bo'lgan va joriy vaqtgacha ustivor bo'lgan, biroq o'qituvchi va o'quvchilar muqaddas bilan qadriyatlarga nisbatan ziddiyatli holatda bo'lgan axloq me'yorlari, pedagogik axloq zamirida sodir bo'ladi. Bu degani aslo o'qituvchi va o'quvchilar axloqsiz, axloqiylikka zid xatti-harakatlar sodir etadi, degan ma'noni anglatmaydi. Shunchaki, ularning xatti-harakatlari mavjud ijtimoiy axloq me'yorlariga to'g'ri kelmaydi, xolos. Bunday vaziyatlarda o'quvchi o'qituvchining ibratiga amal qilib, o'z axloqiy tarbiyasining poydevoriga tamal toshi qo'ygan hisoblanadi. Ehtimol bu vaziyatlarda o'qituvchi uyat hissi va vijdon azobini boshdan kechiradi, biroq, eng muhimi, qabul qilgan qarori uchun o'zi va boshqalar (ta'lim jarayoni ishtirokchilari) oldida ulkan mas'uliyat his qiladi. Ya'ni ushbu vaziyatda o'qituvchi va o'quvchilarning axloqiy tarbiyasi ularning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babashev F.A. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining ma'rifiy-axloqiy qarashlari:

Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 1999. – B.149.

2. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. – T.: Sharq, 2000. – B.94.

3. Бим-бад Б.М. Педагогическая антропология – М.: URAO, 2003. – С. 208.

4. Gulmetov E., Qobiljonova T., Ernazarov Sh., Mavruzov A. Madaniyatshunoslik. – T.: "O'AJBNT" markazi, 2000. – B. 179.

5. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 448.

6. Isayeva G. Bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy fazilatlar. // Xalq ta'limi. – T., 2004. - №2. – B.41-46.

7. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 2000. – B. 320.

8. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. –T.: O'qituvchi, 1999. – B. 200.

9. Musurmonova O., Baubekova G. O'zbek xalq pedagogikasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – B. 64.

10. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). – T.:O'zbekiston, 1995.–246 b.

11. Umarov E., Abdullayev M., Hakimov E. Культурология. - Ташкент: Yangi asr avlodi, 2006. – С. 160 .

12. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M. Estetika asoslari. –T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2006. – B. 200.